

Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon o'g'li

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ziyodullaeshmirzayev@gmail.com

0009-0002-9755-0326

XX ASRDA AMUDARYO HAVZASIDA SUV XO'JALIGINI BOSHQARISH TIZIMI, MODDIY-TEXNIK BAZASI VA KADRLAR SALOHIYATI

Annotatsiya. Maqolada XX asrda, ayniqsa uning ikkinchi yarmida Amudaryo havzasining O'zbekiston qismida suv xo'jaligini boshqarish tizimi, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatining shakllanishi hamda tadrijiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosi shundan iboratki, irrigatsiya sohasidagi qaror va huquqiy hujjatlarning ijro mexanizmi shu paytgacha yaxlit institutsional tizim sifatida yetarli o'rganilmagan. Muallif O'zbekiston Milliy arxivi, Markaziy davlat arxivi va Qashqadaryo viloyat davlat arxivi hujjatlari, davr matbuoti hamda maxsus adabiyotlarni tarixiylik, qiyosiy-tarixiy va tizimli tahlil metodlari asosida o'rganadi. Natijada an'anaviy mirobchilik institutidan markazlashgan idoraviy apparatgacha bo'lgan yo'l bosqichma-bosqich ochib beriladi; moddiy-texnik bazaning miqdoriy o'sishi bilan uning sifatli ishlatilishi o'rtasidagi uzilish hujjatlar asosida asoslanadi; kadrlar tayyorlash tizimining xalqaro miqyosga chiqishi va ayni paytda malaka tarkibi zaifligi hamda qo'nimsizlik muammosi statistik ko'rsatkichlar bilan dalillanadi. Muallifning ilmiy hissasi suv xo'jaligini boshqarish tizimi, moddiy-texnik baza va kadrlar salohiyatini yagona institutsional zamin sifatida birinchi marta birlashtirib tahlil qilishida, amaliy hissasi esa ilmiy muomalaga yangi arxiv hujjatlarini kiritishida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: suv xo'jaligi, Amudaryo havzasi, irrigatsiya, melioratsiya, boshqaruv tizimi, moddiy-texnik baza, kadrlar salohiyati, sug'orish tizimlari, Qarshi cho'li, mirob, ekspluatatsiya, kadrlar qo'nimsizligi.

СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ ВОДНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ, МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКАЯ БАЗА И КАДРОВЫЙ ПОТЕНЦИАЛ В БАССЕЙНЕ АМУДАРЬИ В XX ВЕКЕ

Аннотация. В статье анализируется формирование и эволюция системы управления водным хозяйством, её материально-технической базы и кадрового потенциала в узбекистанской части бассейна Амударьи в XX веке, прежде всего во второй его половине. Научная проблема состоит в том, что механизм исполнения решений и правовых актов в сфере ирригации до сих пор не изучен как целостная институциональная система. Автор опирается на документы Национального архива Узбекистана, Центрального государственного архива и Государственного архива Кашкардарьинской области, периодическую печать и специальную литературу, применяя принцип историзма, сравнительно-исторический и системный методы анализа. В результате поэтапно раскрывается путь от традиционного института мирабов к централизованному ведомственному аппарату; на документальной основе обосновывается разрыв между количественным ростом материально-технической базы и качеством её использования; статистическими показателями подтверждается выход системы подготовки кадров на международный уровень при одновременной слабости квалификационного состава и хронической текучести кадров. Научный вклад автора заключается в первом опыте объединённого анализа трёх названных составляющих как единой институциональной основы, практический — во введении в научный оборот новых архивных документов.

Ключевые слова: водное хозяйство, бассейн Амударьи, ирригация, мелиорация, система управления, материально-техническая база, кадровый потенциал, оросительные системы, Каршинская степь, мираб, эксплуатация, текучесть кадров.

THE WATER MANAGEMENT SYSTEM, MATERIAL AND TECHNICAL BASE, AND HUMAN RESOURCES IN THE AMU DARYA BASIN IN THE 20th CENTURY

Annotation. *This article analyses the formation and evolution of the water management system, its material and technical base, and its human resources in the Uzbek part of the Amu Darya basin during the twentieth century, and particularly in its second half. The research problem is that the implementation mechanism behind irrigation decisions and legal acts has not yet been studied as an integrated institutional system. Drawing on documents from the National Archive of Uzbekistan, the Central State Archive and the State Archive of Kashkadarya Region, together with contemporary periodicals and specialised literature, the author applies the principle of historicism as well as comparative-historical and systemic methods of analysis. The findings trace, stage by stage, the transition from the traditional mirab institution to a centralised departmental apparatus; document the gap between the quantitative growth of the material and technical base and the quality of its use; and demonstrate, through statistical indicators, that the training system attained international standing while the qualification profile of personnel remained weak and staff turnover chronic. The author's scholarly contribution lies in the first combined analysis of these three components as a single institutional foundation, and the practical contribution in introducing new archival documents into scholarly circulation.*

Key words: *water management, Amu Darya basin, irrigation, land reclamation, administrative system, material and technical base, human resources, irrigation systems, Karshi steppe, mirab, exploitation, staff turnover.*

Kirish. Har qanday sohada hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar va huquqiy hujjatlar o'z-o'zidan bajarilib qolmaydi. Ularning ijrosi uchun maxsus boshqaruv apparati, ulkan moddiy-texnik quvvatlar hamda o'n minglab malakali mutaxassis talab qilinadi. Shu ma'noda Amudaryo havzasidagi irrigatsiya o'zgarishlarining haqiqiy ijro mexanizmi suv xo'jaligini boshqarish tizimi, uning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatida aks etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi ikki jihat bilan belgilanadi. Birinchidan, XX asr davomida Amudaryo havzasida amalga oshirilgan irrigatsiya o'zgarishlarining oqibatlari — Orol fojiasidan tortib sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatigacha — bugungi suv siyosati uchun bevosita ahamiyatga ega. Ikkinchidan, ushbu o'zgarishlarni yuzaga chiqargan institutsional zamin, ya'ni boshqaruv tizimi, moddiy-texnik baza va kadrlar salohiyati o'zaro bog'liq yaxlit tizim sifatida hozirgacha maxsus o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda ular ko'pincha alohida-alohida, qurilish yutuqlari kontekstida yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi — XX asrda Amudaryo havzasining O'zbekiston qismida suv xo'jaligini boshqarish tizimi, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyati qanday shakllangani, ularning tadrijiy taraqqiyoti, o'zaro bog'liqligi va ichki ziddiyatlarini birlamchi manbalar asosida tizimli yoritishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: an'anaviy suv taqsimoti institutlaridan markazlashgan davlat apparatiga o'tish bosqichlarini aniqlash; boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilmasi va idoralararo munosabatlar mexanizmini ochish; moddiy-texnik bazaning o'sish dinamikasi hamda undan foydalanish samaradorligini qiyoslash; kadrlar tayyorlash tizimining rivoji va uning sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish; tizimning ichki ziddiyatlarini aniqlash.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Mavzuga oid adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni sovet davrida yaratilgan umumlashtiruvchi asarlar tashkil etadi. S.I. Iskandarov va F.M. Rahimboyevning O'zbekistonda irrigatsiya va melioratsiyaning rivojlanishiga bag'ishlangan ishida soha taraqqiyoti asosan yutuqlar nuqtai nazaridan yoritilgan [11]. "Ирригация Узбекистана" ko'p jildligi muhandislik-texnik jihatlarni batafsil qamragan bo'lsa-da, boshqaruv tizimining ichki ziddiyatlariga to'xtalmaydi [13]. N. Ergashev qo'riq yerlarni o'zlashtirishda partiya rahbarligini o'rganib, kadrlar tayyorlash

tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qimmatli ma'lumotlar keltiradi [10]. Ushbu guruh asarlari faktik jihatdan boy, biroq davr mafkurasi ta'sirida tanqidiy tahlil elementlaridan xoli.

Ikkinchi guruh — mintaqaviy o'zlashtirish tarixiga bag'ishlangan dissertatsion tadqiqotlar. I. Xalikovning Surxon-Sherobod vodiysi irrigatsiyasi tarixiga oid ishi texnika parkining miqdoriy ko'rsatkichlarini birlamchi manbalar asosida keltiradi [8]. N. Xamrayev va I. Xalikovning Qarshi cho'lini o'zlashtirishga bag'ishlangan asari qurilish maydonlarining kadrlar tayyorlashdagi rolini ochib beradi [9]. Chjuan Shitsining SSSR agrar siyosatiga oid tadqiqoti direktiv boshqaruv modelining umumiy xususiyatlarini nazariy jihatdan umumlashtiradi va bizning tahlilimiz uchun qiyosiy asos beradi [4].

Uchinchi guruhni mustaqillik yillarida yaratilgan ishlar tashkil etadi. R. Xatamovanning suv xo'jaligi xodimlari va irrigatorlar tayyorlash an'analari tarixiga bag'ishlangan dissertatsiyasi kadrlar salohiyati masalasini maxsus o'rgangan eng muhim tadqiqot hisoblanadi [2]. V.A. Duxovniy va Yu. de Shutterning Markaziy Osiyo suvi haqidagi monografiyasi mintqa suv xo'jaligining ishlab chiqarish quvvatlari bo'yicha noyob umumlashtirilgan raqamlarni beradi [7]. A. Muhamedovning o'quv qo'llanmasi esa mirobchilik institutining ijtimoiy mohiyatini tushunishga xizmat qiladi [1].

Alohida manbalar guruhini davr ixtisoslashgan matbuoti tashkil etadi. "Гидротехника и мелиорация" jurnalida chop etilgan F.Sh. Shamsutdinov va V.F. Grigoryevaning maqolasi kadrlar qo'nimsizligi sabablarini sotsiologik so'rov natijalari asosida ochib bergani bilan qimmatlidir [6]. E.N. Markevichning Tuyamo'yin gidrouzeliga oid maqolasi loyihalash bosqichidagi texnik yechimlarni aks ettiradi [5]. M.V. Rikunovning 1925-yilgi maqolasi esa dastlabki sovet irrigatsiya siyosatining istiqbolli vazifalarini belgilaydi [3].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv tizimi, moddiy-texnik baza va kadrlar salohiyati alohida-alohida ma'lum darajada o'rganilgan, biroq ular yagona institutsional zamin sifatida, ichki ziddiyatlari bilan birga tahlil qilinmagan. Ushbu maqola aynan mana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslanadi. Manbalar bazasini uch guruh hujjat tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi hamda Markaziy davlat arxivining suv xo'jaligi idoralariga oid jamg'armalari [23; 24], Qashqadaryo viloyat davlat arxivi hujjatlari [25] va davr matbuoti [26; 27].

Ishda quyidagi metodlar qo'llanildi. Xronologik metod boshqaruv tizimi, moddiy-texnik baza va kadrlar salohiyatining rivojini vaqt ketma-ketligida kuzatish imkonini berdi. Qiyosiy-tarixiy metod turli bosqichlardagi tashkiliy shakllarni — mashina-ekskavator stansiyalaridan ko'chma mexanizatsiyalashgan kolonnalargacha — o'zaro solishtirishga xizmat qildi. Tizimli tahlil metodi uchala tarkibiy qismni yagona institutsional mexanizm sifatida ko'rish imkonini yaratdi. Statistik metod texnika parki hajmi, bitiruvchilar soni va kadrlar qo'nimsizligi ko'rsatkichlarini qiyosiy baholashda ishlatildi.

Manbalarni tanqidiy tahlil qilishda rasmiy hisobot hujjatlaridagi ko'rsatkichlar bilan tekshiruv materiallaridagi ma'lumotlar solishtirildi. Bu yondashuv qurilish ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy optimizm hamda ekspluatatsiya holati bo'yicha idoraviy tanqid o'rtasidagi farqni aniqlash imkonini berdi va tadqiqot xulosalarining ishonchliligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

1. Boshqaruv tizimining shakllanishi. Boshqaruv tizimi haqida so'z yuritishdan avval bir muhim tarixiy asosni qayd etish lozim: Amudaryo havzasida suvni idora etish sovet davridan ancha ilgari o'ziga xos ijtimoiy institutlarga ega bo'lgan. Asrlar mobaynida suv taqsimoti mahalliy miroblar, ariq oqsoqollari va suvchilar zimmasida bo'lib, ularda ekin ekish tartibi, yerga ishlov berish muddatlari, sug'orish navbati va almashlab ekishga oid bilimlar avlodlardan avlodga o'tib kelgan; suv sivilizatsiyasining shakllanishi jarayonida miroblar alohida ijtimoiy tabaqa sifatida qaror topgan edi [1]. Sovet boshqaruv tizimi aynan mana shu an'anaviy institutlar o'rnini egallab, suv taqsimotini bosqichma-bosqich markazlashgan davlat apparati qo'lga o'tkazdi.

Markazlashgan boshqaruvning dastlabki bo'g'ini 1918-yilda tashkil etilgan Turkvodhoz (Turkiston suv xo'jaligi boshqarmasi) bo'ldi. Turkistonda irrigatsiya ishlarini tashkil qilish va

44 boshqarish uchun tuzilgan ushbu organ 1918-yil 17-maydagi dekretida keltirilgan mablag' taqsimotining bajaruvchisi va texnik ijrochisi vazifasini o'tadi. Shu davrda irrigatsiya ishlarini boshqarish uchun maxsus IRTUR boshqarmasi ham faoliyat yuritdi [2].

1920-yilda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti qaroriga muvofiq suv xo'jaligi va irrigatsiyaning Bosh qo'mitasi tuzilib, soha respublika miqyosidagi yagona texnik siyosatga bo'ysundirildi. Milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng esa O'zSSR Suv xo'jaligi xalq komissariati tashkil topdi [2]. 1925–1927-yillarda Respublika suv xo'jaligi boshqarmasi yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish ishlarini sezilarli kengaytirdi; ayni shu davrda O'rta Osiyo suv xo'jaligi boshqarmasi tashabbusi bilan xo'jalik va xo'jaliklararo kanallar melioratsiya shirkatlariga topshirilib, davlat organi bilan jamoat tashkiloti o'rtasida vazifalar taqsimoti amalga oshirildi [23]. Mavjud irrigatsiya tizimlarini saqlab qolish davri yakuniga yetgach, suv xo'jaligi organlari istiqbolli vazifalarga, jumladan Amudaryo bo'yicha maxsus qidiruv partiyalarini tashkil etish va yirik gidrotexnik loyihalarni tayyorlashga o'ta boshladi [3].

1920-yillarning oxiri — 1940-yillarda boshqaruv tizimi kolxoz tuzumi ehtiyojlariga moslashtirildi. Respublika suv xo'jaligi O'zSSR Dehqonchilik xalq komissarligi tarkibidagi boshqarma shaklida faoliyat yuritdi, joylarda esa viloyat va tuman suv xo'jaligi bo'limlari (oblvodxoz, rayvodxoz) tarmog'i hamda sug'orish tizimlari boshqarmalari vujudga keldi [2].

Urushdan keyingi davrda soha mustaqil vazirlik maqomiga ko'tarildi. 1949-yilgi hujjatlar O'zSSR Suv xo'jaligi vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligining qo'shma buyruqlari shaklida chiqarilgan bo'lib, bu ikki idora o'rtasidagi funksional taqsimotni — birinchisiga tizimlarni qurish va ekspluatatsiya qilish, ikkinchisiga suvdan foydalanuvchi xo'jaliklarni boshqarish vazifasi yuklanganini aks ettiradi. Mazkur qo'shma buyruq sug'orish tizimlarini navbatdagi vegetatsiya davriga tayyorlash tartibini batafsil belgilab, kanallarni tozalash, gidrotexnik inshootlarni ta'mirlash va suv o'lchash ishlarini yo'lga qo'yish muddatlarini har ikki idoraning joylardagi organlari uchun majburiy qilib qo'ydi — ya'ni boshqaruvning idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmi eng quyi bo'g'ingacha yetkazildi [24]. Vazirlikning boshqaruv uslubini 1951-yil apreldagi 590-son qaror yaqqol ko'rsatadi: unda vegetatsiya davriga tayyorgarlikning barcha jabhalari — kanallarni tozalashdan tortib nasos stansiyalarini ta'mirlashgacha — respublika markazidan yagona jadval asosida rejalashtirilib, viloyatlar kesimida aniq topshiriqlar belgilangan [24].

Shunday qilib, 1950-yillarning boshlariga kelib Amudaryo havzasining o'zbekistonlik qismida to'liq markazlashgan, vertikal bo'ysunuvga asoslangan boshqaruv tizimi qaror topdi. Bu tizim umumittifoq direktiv boshqaruv modelining tarkibiy qismi bo'lib, unda quyi bo'g'inlarning vazifasi yuqoridan belgilangan rejalarni ijro etishdan iborat edi; mustaqil tashabbus va xo'jalik hisobi elementlari esa cheklangan o'rin tutardi [4].

1960-yillarda irrigatsiya qurilishining misli ko'rilmagan kengayishi boshqaruv tizimini tubdan qayta qurishni taqozo etdi. Umumittifoq miqyosida 1965-yilda SSSR Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi tashkil etilgach, respublikada ham unga muvofiq O'zSSR Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi faoliyat ko'rsata boshladi; 1967-yilgi hujjatlar aynan shu vazirlik nomidan chiqarildi [24]. Shu bilan birga sug'oriladigan dehqonchilikka oid ko'plab masalalar O'zSSR Qishloq xo'jaligi vazirligi vakolatida qoldi. Masalan, xo'jalik ichki tarmoqlaridan foydalanish ustidan nazorat 1971-yilda aynan Qishloq xo'jaligi vazirligi kollegiyasida ko'rib chiqilgan [24]. Ikki vazirlikning parallel faoliyati — biri asosan davlatlararo va xo'jaliklararo tizimlar uchun, ikkinchisi suvdan foydalanuvchi xo'jaliklar uchun mas'ul bo'lgan holda — davrning o'ziga xos institutsional xususiyati bo'lib qoldi.

Yirik o'zlashtirish dasturlari uchun boshqaruvning yana bir bo'g'ini — ixtisoslashgan qurilish bosh boshqarmalari va trestlar tarmog'i yaratildi. Qarshi cho'lini o'zlashtirish boshlanishi bilan SSSR Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligining "Главсредазирсовхозстрой" bosh boshqarmasi tarkibida "Каршистрой" boshqarmasi tuzilib, unga cho'ldagi barcha qurilish-montaj ishlari bo'ysundirildi; o'quv yurtlari ham aynan shu tizim ixtiyoriga o'tkazildi [20]. 1967-yil yanvarida O'zbekiston KP Markaziy Komiteti qarori bilan viloyat suv xo'jaligi kapital qurilishi uchun "Qashqadaryosuvqurilish" tresti tashkil etildi; yangi trest faoliyatining dastlabki bosqichida

eng og'ir muammo aynan malakali kadrlar yetishmasligi bo'lgani uning tez sur'atlarda, tayyor bazasiz tuzilganidan dalolat beradi [14]. Rahbar kadrlar bilan ishlash tartibi ham markazdan belgilanardi: O'zSSR Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1966-yil 23-apreldagi "Boshqaruv xodimlari bilan ishlash to'g'risida"gi qarori asosida qurilish idoralarida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tartibi qayta ko'rib chiqildi [25].

Respublika bo'ylab "Узглавводстрой" tizimida "Farg'onasuvqurilish", "Surxonsovxozqurilish", "Zangqurilish" kabi o'nlab trestlar hamda ularning tarkibidagi ko'chma mexanizatsiyalashgan kolonnalar (PMK) va qurilish-montaj boshqarmalari (SMU) faoliyat yuritdi [6]. Aynan shu quyi bo'linmalar faoliyati butun tizimning ish sifatini belgilardi; 1960-yillar oxiridagi xo'jalik islohoti trestlarni xo'jalik hisobi tamoyillariga o'tkazish orqali quyi bo'g'in manfaatdorligini oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, suv xo'jaligi qurilishida uning samarasi cheklanganligicha qoldi [6]. Loyihalash va ilmiy ta'minot vazifasini "Средазгипроводхлопок" kabi ixtisoslashgan institutlar hamda ittifoq loyiha tashkilotlarining bo'limlari bajardi; yirik inshootlar, jumladan Tuyamo'yin gidrouzeli loyihalari ana shu ilmiy-loyihaviy tarmoq mahsuli edi [5].

Ekspluatatsiya bo'g'inidagi boshqaruv esa tizimning eng zaif jihati bo'lib chiqdi. SSSR Qishloq xo'jaligi vazirligi va SSSR Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligining 1966-yil 17-avgustdagi 236/187-son qo'shma buyrug'i melioratsiya tizimlaridan foydalanishni yaxshilashning me'yoriy asosini yaratdi [24]. Biroq 1971-yil 16-iyulda O'zSSR Qishloq xo'jaligi vazirligi kollegiyasining 52-son qarori mazkur buyruq ijrosini tekshirar ekan, jiddiy nuqsonlarni qayd etdi: xo'jaliklarda kollektor-drenaj tarmoqlaridan foydalanish xizmati tashkil etilmagan, kolxoz va sovxozlarning ekspluatatsiya shtatlari texnik- va muhandis-gidrotexniklar bilan to'liq ta'minlanmagan, ko'pchilik kanallar gidrometrik postlar bilan jihozlanmagan edi. Vazifa ko'lamida esa keng bo'lib, kollegiya materiallariga ko'ra 1971-yilgi hosil uchun xo'jalik ichki tarmoqlari orqali 4,3 million gektar yerni sug'orish rejalashtirilgan, shundan 3,5 million gektari melioratsiyalangan maydonlar edi [24].

Boshqaruv islohotining cho'qqisi XX asr 70-yillarining ikkinchi yarmiga to'g'ri keldi. Boshqaruv nuqtai nazaridan muhimi shuki, ekspluatatsiya tashkilotlarini tubdan mustahkamlash, jumladan tumanlararo va tizim boshqarmalarini yiriklashtirish, ixtisoslashgan birlashmalar tuzish hamda qishloq xo'jaligi bo'limi doirasidagi kapital qo'yilmalarning kamida bir foizini vazirlikning ishlab chiqarish bazalari, turar joy va madaniy-maishiy obyektlari qurilishiga yo'naltirish nazarda tutilgandi. Topshiriqlar nafaqat xo'jalik organlariga, balki bevosita partiya viloyat qo'mitalari va tuman ijroiya qo'mitalariga ham berildi [23].

Boshqaruv tizimining umumiy tavsifida ikki jihatni alohida qayd etish zarur. Bir tomondan, qat'iy partiya nazorati misli ko'rilmagan safarbarlik quvvatini ta'minlay oldi: aynan shu tizim millionlab gektar yerni o'zlashtirishga qodir resurslarni ixtiyoriy-majburiy ravishda jamlay oldi. Ikkinchi tomondan, boshqaruvda yuqoridan pastga qarab harakatlanadigan, xo'jalik bo'g'inining manfaatdorligi hisobga olinmaydigan model hukmron edi. Bu tizimda qurilish ko'rsatkichlari ekspluatatsiya sifatidan ustun qo'yilar, idoraviy manfaatlar tarmoq manfaatlaridan yuqori turardi. 1970-yillarning ikkinchi yarmi — 1980-yillar boshidagi agrosanoat integratsiyasiga urinishlar ham direktiv boshqaruv mohiyatini o'zgartirmadi, balki uni yangi tashkiliy qobiqlarga o'rab qo'ydi, xolos [4].

2. Moddiy-texnik bazaning rivoji. Mexanizatsiyalashgan bazaning ilk asosi 1950-yillardayoq shakllana boshladi. 1950-yilda O'zSSR Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan Qashqadaryo sug'orish tarmoqlari boshqarmasi tizimida maxsus mashina-eksavator stansiyasi tashkil etilib, qazish ishlari qo'l mehnatidan mashina mehnatiga o'tkazila boshlandi [25]. Biroq mexanizatsiyaning dastlabki bosqichi samaradorlik nuqtai nazaridan ziddiyatli kechdi: 1950–1955-yillarda traktorlar bilan bajariladigan ish hajmi 61 foizga oshgani holda, paxtaning yalpi hosili atigi 11 foizga ko'paydi — bu texnika quvvatlari bilan undan foydalanish madaniyati o'rtasidagi uzilishdan dalolat berardi [22].

1960–1970-yillarga kelib yirik obyektlar qurilishida texnika parki minglab birlikni tashkil etadigan bo'ldi. Janubiy Surxon suv ombori qurilishida 550 ga yaqin quvvatli mashina jamlangan

bo'lsa [8], Eskianhor kanalining 1972–1974-yillardagi rekonstruksiyasida 500 ga yaqin yer qazish va tekislash mashinasi hamda 700 dan ortiq avtomashina ishlatildi; ayrim ixtisoslashgan jamoalar 40 ta ekskavator, skreper va buldozer bilan bir mavsumda million kubometr tuproq ishini bajarishga qodir edi [26]. Yirik gidrouzellarining uskunolari — quvvatli nasos agregatlari, gidroturbinalar, ko'tarish mexanizmlari — ittifoqning ixtisoslashgan zavodlarida buyurtma asosida tayyorlanib keltirildi. Masalan, Tuyamo'yin gidrouzeli loyihasida gidroagregatlar, suv chiqarish inshootlari va baliq o'tkazish shlyuzigacha bo'lgan butun texnologik kompleks sanoat kooperatsiyasi mahsuli sifatida rejalashtirilgan edi [5].

1980-yillarga kelib O'rta Osiyo suv xo'jaligi o'z davri uchun ulkan ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'ldi. V.A. Duxovniy va Yu. de Shutter keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada suv xo'jaligi yiliga 3000 kilometrgacha yopiq gorizonttal drenaj, bir necha ming kilometr lotok kanallar qurish, 2 million kubometrgacha yig'ma temir-beton ishlab chiqarish hamda mavjud moddiy-texnika bazasi bilan yiliga 1 million gektargacha maydonda ekspluatatsion tekislash ishlarini bajarish imkoniyatiga ega edi [7]. Bu ko'rsatkichlar respublika hududida ixtisoslashgan temir-beton zavodlari, ta'mirlash-mexanika korxonalari va qurilish industriyasining yaxlit tarmog'i yaratilganidan dalolat beradi. Bunday industrial bazaning mintaqaviy bo'g'ini ham izchil shakllantirildi: birgina Qarshi cho'lini o'zlashtirish bazasida yiliga 170 ming kubometr quvvatga ega silikaltsit buyumlari ishlab chiqarish, avtomashina va qurilish-yo'l mexanizmlari parki hamda 500 ming kvadrat metr yog'ochni qayta ishlash quvvatiga ega korxonalar barpo etildi [26]. Biroq moddiy-texnik bazaning miqdoriy o'sishi uning sifatli ishlatilishini avtomatik ta'minlamadi. Davr manbalarining o'zi bu boradagi jiddiy nomutanosibliklarni qayd etadi. "Гидротехника и мелиорация" jurnalida chop etilgan maxsus tadqiqotda suv xo'jaligi qurilishi trestlarida obyektlarni qurilish materiallari va temir-beton konstruksiyalari bilan ta'minlashning yomonligi ko'rsatiladi; ish frontining yo'qligi tufayli ekskavatorlarning tez-tez bekor turishi ishchilar daromadiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatgani qayd etiladi [6]. Yangi texnikaning sust joriy etilishi, mexanizatsiya darajasining pastligi va ochiq havodagi og'ir mehnat sharoitlari esa eng ko'p betonchilar va g'ishtchilarning ishdan ketishiga sabab bo'lgan [6]. Xo'jalik ichki tarmoqlarini tozalashning me'yoriy davriyligi uch yilda bir marta bo'lgani holda, amalda bu ishlar o'rtacha olti-yetti yilda bir bajarilar, yer qazish texnikasining hisobini yuritish esa ko'p joyda umuman tashkil etilmagan edi [24].

Texnika parkining tashkiliy shakli ham davr talabiga qarab o'zgarib bordi: 1950-yillardagi mashina-ekskavator stansiyalari o'rnini 1960–1970-yillarda trestlar tarkibidagi ko'chma mexanizatsiyalashgan kolonnalar egallab, texnika endi muayyan hudud emas, balki muayyan obyekt ortidan ko'chib yuradigan bo'ldi. 1976-yilgi 603-son qaror esa moddiy bazani yangi bosqichga ko'tarishni — eskirgan tizimlarni kompleks rekonstruksiya qilish, kanallarni betonlashtirish va lotok tarmoqlarini kengaytirishni — o'ninchi besh yillikning ustuvor vazifasi etib belgiladi [23]. Shu tariqa moddiy-texnik baza masalasida ham tizimli ziddiyat, ya'ni yangi qurilishning ekspluatatsiyadan ustun qo'yilishi yaqqol namoyon bo'ldi: davlat yangi quvvatlar yaratishga mablag'ni ayamas, ammo yaratilgan fondlarni saqlash va samarali ishlatish mexanizmi ancha orqada qolardi.

3. Kadrlar salohiyatining shakllanishi. Ikkinchi jahon urushi kadrlar tayyorlash tizimiga og'ir zarba berdi: institut talabalarining umumiy soni 1940-yil sentabridagi 657 kishidan 1941-yil iyuliga kelib 366 taga, professor-o'qituvchilar shtati esa 99 tadan 69 taga qisqardi [23]. Biroq urushdan keyingi tiklanish jadal kechdi: agar 1945-yilda institutni 325 kishi bitirgan bo'lsa, 1950-yilga kelib bitiruvchilar soni 1290 taga yetdi [23]. Oliy ta'lim bilan bir qatorda qisqa muddatli tayyorlov shakllari ham kengaytirildi: TIIMSX qoshida 200 kishiga mo'ljallangan uch oylik malaka oshirish kurslari ochildi [23].

Kadrlar siyosatidagi tub burilish 1951-yilga to'g'ri keladi. 1950-yilgi rejalarning to'liq bajarilmasligi aynan malakali kadrlar yo'qligi bilan izohlanib, mutaxassislar yetishmasligi tufayli tuman kanallari va suvdan foydalanuvchi xo'jaliklarda rejali suv aylanishini ta'minlab bo'lmayotgani qayd etilgan edi [25]. SSSR Ministrlar Sovetining 1951-yil 1-martdagi 633-son "Gidrotexnika ixtisosliklari bo'yicha muhandis va texniklar tayyorlashni kengaytirish

to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zSSR Ministrlar Soveti 1951-yil 12-mayda 870-son qarorni qabul qildi. Ushbu hujjat respublikada o'rta bo'g'in gidrotexnik kadrlar tayyorlashning yaxlit tarmog'ini yaratdi: Samarqand qishloq xo'jaligi texnikumi yillik 90 nafar qabul bilan gidromeliorativ texnikumga aylantirilib, Suv xo'jaligi vazirligi tizimiga o'tkazildi. Qaror texnikumlar tarmog'ini yagona nomenklaturaga keltirishni ham nazarda tutib, har bir o'quv yurti uchun pedagogik shtatlar, stipendiya jamg'armasi va o'quv-ishlab chiqarish amaliyoti xarajatlarini o'z ichiga olgan alohida smeta tasdiqlandi [24]. Keyingi yili qabul tarkibi ehtiyojga qarab tezkor o'zgartirildi: 1952-yil 16-avgustdagi 83-son farmoyish bilan ikki yillik bo'limga qabul kvotasi 30 nafarga oshirilib, to'rt yillik bo'lim kvotasi shunchaga kamaytirildi [24].

O'zlashtirish dasturlari kengaygan sari kadrlar taqchilligi yangi shakllarda namoyon bo'ldi. 1956-yildayoq yirik qurilishlarga mexanizatorlar komsomol yo'llanmasi bilan yuborila boshlandi: birgina o'sha yilning iyul oyida qurilishga shu tartibda 30 kishi ishga keldi [17]. 1962-yilgi tekshiruvlar viloyat qishloq xo'jaligi kadrlari orasida maxsus ma'lumotga ega bo'lganlar atigi 12 foizni tashkil etishini, 900 dan ortiq diplomli mutaxassis esa sohaga aloqasi bo'lmagan ishlarda band ekanini ko'rsatdi [21]. 1963-yilda respublika xo'jaliklariga, jumladan Qashqadaryoga, qishloq xo'jaligining turli sohalari bo'yicha 2388 nafar o'rta va oliy ma'lumotli yosh mutaxassis yuborildi, biroq turmush sharoitlari yaratilmagani bois ularning katta qismi tez orada ish joylarini tark etdi [18].

1960-yillarda kadrlar tayyorlash to'g'ridan-to'g'ri qurilish dasturlariga bog'landi. 1964-yilda Shahrisabz qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash texnikumi va Qarshi mexanizatsiya maktabi "Средазирсовхозстрой" bosh boshqarmasi ixtiyoriga berilib, "Qarshiqurilish" uchun kadr tayyorlashga yo'naltirildi; Qarshi mexanizatsiya maktabi negizida esa Qarshi politexnikumi tashkil etildi [15]. 1965-yil 14–15-aprelda o'tkazilgan bosh boshqarma kengashida suv xo'jaligi bo'yicha 8 ta o'rta maxsus o'quv muassasasi va 10 ta o'quv kombinati tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi [10]. "Qarshiqurilish" boshqarmasining yirik o'quv kombinatida har yili 2 ming ishchi tayyorlana boshladi [25].

Umumittifoq miqyosida ham dinamika shiddatli edi. Melioratorlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari soni 1963-yildagi 17 tadan 1969-yilda 30 taga, texnikumlar 32 tadan 90 taga yetdi; TIIMSXning o'zi 12 fakultetda sakkiz mingdan ortiq talabaga ega yirik oliy o'quv yurtiga aylanib, so'nggi o'n yillikda respublika, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalq xo'jaligi uchun 8710 mutaxassis yetkazib berdi; uning gidromelioratsiya fakulteti 1920–1969-yillar mobaynida 4048 yuqori malakali kadr tayyorladi [19]. Malaka oshirish tizimi viloyatlar kesimida muntazam ishladi: birgina 1971-yilda Toshkentdan 17, Sirdaryodan 18, Farg'onadan 19, Namangandan 16, Andijondan 15, Samarqanddan 21, Buxorodan 18, Qashqadaryodan 18 nafar mutaxassis maxsus kurslarda o'qidi [23]; mahalliy bo'g'inda ham bu ish tizimli yo'lga qo'yilib, 1971–1973-yillar davomida faqat "Qarshiqurilish" boshqarmasining o'zida 126 muhandis-texnik xodim malaka oshirish kurslarini tamomladi [26]. Xo'jaliklar bo'g'inida kadrlar tanqisligini yumshatish uchun o'ziga xos amaliyot joriy etildi: har yili o'rta maktabni bitirgan yoshlar orasidan 2–3 nafar yigitni TIIMSXga o'qishga yuborish kolxozlar zimmasiga yuklatildi [24]. Ehtiyoj miqyosi esa ulkan edi: 1970-yil 31-iyuldagi 443-son qaror bilan tasdiqlangan mehnat haqi bo'yicha tavsiyalar asosidagi hisob-kitoblarga ko'ra, faqat respublika kolxozlarining o'zida gidrotexnik shtatlarni to'ldirish uchun 946 muhandis va 1200 ga yaqin texnik-gidrotexnik hamda meliorator talab etilardi [24].

O'zbekiston suv xo'jaligi ta'limi 1950-yillarning o'rtalaridan xalqaro maqomga ham ega bo'ldi. 1956-yili TIIMSXda Xitoy va Mo'g'ulistondan kelgan 20 talaba tahsilni boshladi [2]. Keyinchalik institutda Kuba, Vyetnam, Misr, Afg'oniston, Gana, Mali, Somali, Keniya, Nigeriya, Suriya, Uganda, Yaman, Tanzaniya va boshqa o'nlab davlatlar vakillari o'qib, ilmiy daraja oldi [12]. Yetti yil mobaynida institut dunyoning 36 mamlakati uchun 289 mutaxassis tayyorlab berdi [11]. Mintaqaviy bo'g'inda esa oliy ta'lim bevosita o'zlashtirish rayonlariga yaqinlashtirildi: 1975-yilda Qarshi shahrida TIIMSX filiali ochilib, unda gidromelioratsiya va yer tuzish mutaxassisliklari bo'yicha kunduzgi hamda sirtqi bo'limlarda o'qitish yo'lga qo'yildi; institut bo'yicha birinchi kursga qabul 1974/1975-o'quv yilida 925 kishini tashkil etdi [23]. Yirik qurilish maydonlarining o'zi ham kadrlar chiniqadigan maktab vazifasini o'tadi: masalan, Chimqo'rg'on

48 suv ombori qurilishida mamlakatning 20 dan ortiq millat vakillari yelkama-yelka mehnat qilib, mahalliy yoshlar uchun amaliy tajriba manbaiga aylandi [9]. O'n yilliklar davomida shakllangan bu salohiyat o'z mevasini berdi: respublika yetishtirgan A.N. Askochinskiy, V.A. Duxovniy, O.N. Lyamin, S.M. Mamarasulov, B.U. Usmonov singari yetuk irrigator-muhandislar avlodi havzadagi eng murakkab loyihalarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynadi [13].

Shu bilan birga kadrlar salohiyati sohaning eng og'riqli muammolaridan biri bo'lib qolaverdi. Birinchidan, mutaxassislarining malaka tarkibi talabdan ancha orqada edi: Qashqadaryo viloyatida suv xo'jaligi mutaxassislarining atigi 20 foizga yaqini o'z sohasining haqiqiy egasi hisoblangan [16]; Koson tumani sug'orish tizimlari boshqarmasida 1965–1966-yillarda ishlagan 39 mutaxassisdan faqat bittasi oliy va oltitasi o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, qolganlari maktab yoki boshlang'ich ta'lim bilan cheklangan edi [25]. Shtatlar va real ehtiyoj o'rtasidagi nomutanosiblik ham saqlanib qoldi: viloyat sug'orish tizimlari boshqarmasiga davlat ro'yxati bo'yicha 251 nafar oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis o'rni ajratilgani holda, amalda 127 nafar kadrga bo'lgan ehtiyoj qondirilmay turardi [25].

Ikkinchidan, kadrlar qo'nimsizligi surunkali tus oldi: xo'jalik islohotidan avvalgi davrda "Узглавводстрой" korxonalarida yillik oqim 80 foizgacha yetgan, islohotdan so'ng ham "Farg'onasuvqurilish" trestida 1970-yilda 38,4 foiz, 1972-yilda 29,7 foiz, "Surxonsovxozqurilish"da mos ravishda 45,5 va 40,1 foizni tashkil etgan [6]. 1972-yilda o'tkazilgan maxsus so'rov qo'nimsizlik sabablarini ochib berdi: ishdan bo'shaganlarning qariyb 40 foizi mehnatni tashkil etishdagi kamchiliklar va ish haqidan norozilik tufayli ketgan, qolganlari orasida turar joy va madaniy-maishiy sharoitlarning yetishmasligi hamda ish joyining uzoqligi yetakchi o'rin tutgan [6]. Davlat bu muammoni tan olib, 1980-yilgi 468-son qaror va 466-son buyruq bilan ekspluatatsiya xodimlarini moddiy rag'batlantirish, uy-joy qurilishini kengaytirish hamda 1981–1985-yillar uchun kadrlar tayyorlashning istiqbol rejasini tuzish choralari belgiladi [23].

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlil Amudaryo havzasidagi irrigatsiya o'zgarishlarining institutsional zaminini yaxlit tizim sifatida ko'rish imkonini berdi.

Birinchidan, boshqaruv tizimi an'anaviy mirobchilik institutidan markazlashgan idoraviy tuzilmagacha uzoq tadrijiy taraqqiyotni bosib o'tdi. 1918-yilgi Turkvodxozdan boshlangan bu jarayon 1960–1980-yillarda ittifoq va respublika melioratsiya vazirliklari, ixtisoslashgan bosh boshqarmalar, trestlar va tizim boshqarmalaridan iborat ko'p pog'onali apparat bilan yakunlandi.

Ikkinchidan, moddiy-texnik baza misli ko'rilmagan sur'atlarda o'sdi: kapital qo'yilmalarning ko'p barobar ko'payishi, minglab birlikdan iborat texnika parki va yaxlit qurilish industriyasi havzani qayta qurishning moddiy imkoniyatini yaratdi.

Uchinchidan, TIIMSX boshchiligidagi, xalqaro miqyosda tan olingan ta'lim tarmog'igacha o'sgan kadrlar tayyorlash tizimi o'n minglab mutaxassisni safga qo'shdi va sifat bosqichiga ko'tarildi.

Ayni damda uchala yo'nalishda ham tizimning tub ziddiyatlari takrorlanib turdi: boshqaruvda idoraviy tarqoqlik va direktivlik, moddiy bazada qurilishning ekspluatatsiyadan ustunligi, kadrlar sohasida esa malaka tarkibining zaifligi va qo'nimsizlik. Ana shu institutsional imkoniyatlar va cheklovlar mintaqaviy dasturlar — Surxon-Sherobod, Qarshi, Buxoro va Quyi Amudaryo o'zlashtirish loyihalarining borishi hamda natijalarini belgilab berdi. Har bir mintaqaviy dastur yagona boshqaruv shakli, umumiy texnik baza va yagona kadrlar tizimining mahalliy sinovi natijasi bo'ldi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar bildiriladi. Birinchidan, sovet davri suv xo'jaligi boshqaruvining ekspluatatsiya bo'g'iniga oid arxiv hujjatlarini alohida manbashunoslik tadqiqoti obyekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, mintaqaviy o'zlashtirish dasturlarini yagona metodika asosida qiyoslovchi tadqiqotlar olib borish zarur. Uchinchidan, kadrlar qo'nimsizligi masalasini tarixiy-sotsiologik yondashuv asosida o'rganish bugungi suv xo'jaligi kadrlar siyosati uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

1. Мухамедов А. Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш. – Тошкент: Тошкент ирригация ва мелиорация институти, 2008.
2. Хатамова Р. Ўзбекистонда сув хўжалиги ходимлари ва ирригаторлар тайёрлаш анъаналари тарихи: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент: ТИҚХММИ, 2021. – Б. 76, 77, 97, 117.
3. Рыкунов М.В. Ближайшие задачи по ирригации Средней Азии // Вестник ирригации. – 1925. – №4. – С. 3–7.
4. Чжуан Шици. Аграрная политика и развитие сельского хозяйства СССР в середине 1960-х – середине 1980-х гг.: Дисс. ... канд. ист. наук. – М.: МГУ, 2019. – С. 9–16.
5. Маркевич Е.Н. Тюямуонский гидроузел на р. Амударье // Гидротехника и мелиорация. – 1966. – №9. – С. 3–7.
6. Шамсутдинов Ф.Ш., Григорьева В.Ф. Как бороться с текучестью кадров в водохозяйственном строительстве // Гидротехника и мелиорация. – 1975. – №8. – С. 22–25.
7. Духовный В.А., де Шуттер Ю.Л.Г. Вода в Центральной Азии: прошлое, настоящее и будущее. – Ташкент: НИЦ МКВК, 2011. – С. 405–406.
8. Халиков И. История развития ирригации и орошаемого земледелия в Сурхан-Шерабадской долине (1959–1970 гг.): Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1972. – С. 64.
9. Хамраев Н., Халиков И. Освоение и орошение Каршинской степи. – Ташкент, [нашр йили]. – С. 56.
10. Эргашев Н. Руководство Компартии Узбекистана освоением целинных земель. – Ташкент, 1985. – С. 136.
11. Искандаров С.И., Рахимбоев Ф.М. Ўзбекистонда ирригация ва мелиорациянинг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1984. – Б. 27.
12. Эгамбердиев Р., Раззоков А. Ўзбекистонда қўриқ ерларни суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи. – [нашр маълумотлари]. – Б. 264.
13. Ирригация Узбекистана. Т. III. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 95.
14. Раҳмонов Ф. Сув келтирган азиз. – Қарши: Насаф, 1998. – Б. 10.
15. Худойқулов М. Қарши чўли. – Қарши, 1998. – Б. 26.
16. Абдуллаев М. Қарши чўли қаҳрамонлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1980. – Б. 6.
17. Имомназаров О., Фризен Е. Ҳаёт қон томирлари. – Тошкент: Мехнат, 1989. – Б. 18.
18. Имомназаров О., Тилонов Н. Оби ҳаёт заҳматкашлари. – Тошкент, 1989. – Б. 89.
19. Абдуллаев А. Ирригаторлар тайёрлаш тўғрисида ленинча ғамхўрлик // Қашқадарё ҳақиқати. – 1969. – 18 ноябрь (№228).
20. Қарши чўлининг юксак истиқболи // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1970. – №9. – Б. 35.
21. Жабборов И.Х. [диссертация тўлиқ библиографик тавсифи]. – Б. 125–126.
22. Раззоков А. [асар тўлиқ библиографик тавсифи]. – Б. 225.
23. Ўзбекистон Республикаси Миллий архиви (ЎЗР МА). Р-837-фонд, 32-, 33-, 38-, 41-рўйхатлар; Р-839-фонд, 41-рўйхат; Р-2452-фонд, 1-рўйхат; Р-90-фонд, 11-рўйхат.
24. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎЗР МДА). Р-90-жамғарма, 10-рўйхат; Р-837-жамғарма, 38-, 41-рўйхатлар; Р-2483-жамғарма, 1-рўйхат.
25. Қашқадарё вилояти давлат архиви (ҚВДА). 1-фонд, 106-рўйхат; 79-фонд, 1-рўйхат; 505-фонд, 1-рўйхат.
26. «Қашқадарё ҳақиқати» газетаси. – 1967 йил 19 май; 1971 йил 15 декабрь; 1974 йил 27 март.
27. «Чўл ўлкаси» газетаси. – 1974 йил 4 сентябрь.